MUAMMOLI INTEGRATSION TA’LIMNING TAVSIF VA XUSUSIYATLARI

U. I. Abduraufova
Mustaqil izlanuvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23293826

Anotatsiya. Ushbu maqola muammoli integratsion ta’limning mohiyatini ochib beradi. Hozirgi rivojlangan zamonda innovatsion kasbiy tayyorlash vazifasini amalga oshirishda muammoli integratsion ta’limning ahamiyati haqida so‘z yuritadi. Ta’limning bu shakli real muammolarni hal etish orqali ijodiy va tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, axborotni tahlil qilish kabi zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga harakat qiladi.
Kalit so‘zlar: axborot oqimi, fanlararo bog‘liqlik, innovatsion yondashuv, tanqidiy fikrlash, kompetensiya, hamkorlik.

Аннотация. В статье раскрывается сущность проблемно-интегрированного образования. Обсуждается значение проблемно-интегрированного образования в реализации задач инновационной профессиональной подготовки в современную эпоху. Данная форма образования направлена на развитие современных компетенций, таких как творческое и критическое мышление, умение работать в команде и анализ информации посредством решения реальных задач.
Ключевые слова: информационный поток, межфакультетские связи, инновационный подход, критическое мышление, компетентность, сотрудничество.

Abstract. This articl reveals the essence of problem-based integrated education. It discusses the importance of problem-based integrated education in implementing the task of innovative professional training in the modern era. This form of education seeks to develop modern competencies such as creative and critical thinking, collaborative work, and information analysis through solving real problems.
Keywords: information flow, inter-faculty connection, innovative approach, critical thinking, competence, collaboration.

Hozirgi ta’lim tizimi tezkor axborot oqimi, fanlararo bog‘liqlik va ko‘nikmalarni rivojlantirish zaruratini oldinga surmoqda. Shu jihatdan muammoli integratsion ta’lim — bu pedagoglarning bilimlarini bir necha fan doirasida uyg‘unlashtirib, murakkab muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim yondashuvidir.

Muammoli integratsion ta’limda muammoli hikoyalar va o‘quv qiyinchiliklari pedagoglarni funksional kognitiv ishlarga jalb qilish uchun zamin hisoblanadi. Bo‘lajak pedagoglarni faol harakatlanishga undaydi. Integrativ muammoli muhit pedagog tomonidan ataylab ishlab chiqilgan o‘quv muhiti bo‘lib, unda bilim oluvchi o‘zi uchun belgilangan maqsadga xizmat qilish uchun mavjud bilim va ko‘nikmalarning (fanlararo) yetishmasligini tushunadi. Masalan, savolga javob berish, muammo yuzasidan xulosa chiqarish, mahoratni namoyish etish yoki kuzatilgan tashqi ko‘rinishning mohiyatini sharhlash. Integratsion muammoli muhit esa bu kamchiliklarni bilim va tajriba orqali to‘ldiradi [1, 54-b.].

Muammoli ta’lim bugungi kunda innovatsion ta’lim turi hisoblanib, motivatsiya beruvchi yondashuvdir. Bu yondashuv barcha pedagoglarni qamrab olib, muhokama qilishni talab etadi. Guruhda ba’zan shovqin ko‘tarilishi, bir-birini eshitmaslik holatlari kuzatilishi mumkin. Bu yondashuvning kichik kamchiliklaridan biri hisoblanadi.

Integrativ ta’limni bog‘lash — darsda yaratilgan muammoli vaziyatni amaliy amalga oshirish konfiguratsiyasi bo‘lib, muammoli o‘qishning integratsion maqsadini belgilaydi, noma’lum narsalarni bilishga ilhomlantiradi va yangi bilimlarni yoki harakat usulini o‘zlashtirishga olib keladi. Nazariy fanlarni tushuntirishda hayotiy misollardan foydalanamiz. Bu ham integratsiyaning bir ko‘rinishidir. U fanlarning aslida bir butun ekanligini ochib beradi va dunyodagi barcha bilimlarning yaxlitligini ko‘rsatadi.

Muammoli o‘qitish nazariyasini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega qoidalarni ishlab chiqqan psixolog olimlarning asarlarida aqliy rivojlanish nafaqat o‘zlashtirilgan bilimlarning hajmi va sifati, balki fikrlash jarayonlarining tuzilishi, tizimi, mantiqiy operatsiyalar va aqliy harakatlar bilan ham tavsiflanishi ta’kidlanadi (S. L. Rubinshteyn, N. A. Menchinskaya, F. V. Kudryavtsev). Mashhur psixologlar va pedagoglar — L. P. Blonskiy, L. S. Vygotskiy, V. V. Davydov, L. V. Zankov, N. B. Istomina, A. N. Leontyev, I. Ya. Lerner, A. M. Matyushkin, M. I. Mahmutov, V. Okon, S. L. Rubinshteyn, M. N. Skatkin, I. S. Yakimanskaya va boshqalar o‘quv jarayonida muammoli yondashuvdan ilmiy izlanish maqsadida foydalanganlar [2, 301-b.].

Dunyodagi bilimlar bir butun bo‘lib, ular doimo bir-birini talab etadi va to‘ldirib boradi. Bu bilimlarni oson egallashda muammoli ta’lim yordam beradi. Tizimlashtirilgan bilimlarni egallash, ko‘nikmalarga ega bo‘lish va ularni amaliyotda tatbiq eta olish g‘oyat muhim masaladir. Har bir vazifa ma’lum bir natijaga sabab bo‘ladi. Biz o‘rganishimiz kerak bo‘lgan innovatsion yondashuv ham ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Muammoli tadqiqotlar asoschilaridan biri M. I. Mahmudov muammoli o‘rganishni rivojlantiruvchi ta’limning didaktik tizimi sifatida belgilaydi. Ushbu tizim o‘quvchining doimiy aqliy rivojlanishini ta’minlab, mustahkam bilim, muayyan fikrlash tarzi, e’tiqod chuqurligi va bilimlardan ijodiy foydalanishni rivojlantiradi. Muammoli o‘rganish g‘oyasi yangi emas. U A. V. Brushlinskiy, J. V. Dyui, T. A. Ilyina, T. V. Kudryavtseva, A. M. Matyushkin, M. I. Mahmudov, V. Perch va boshqalarning asarlarida yoritilgan. Muammoli o‘rganish motivatsiyaning o‘ziga xos ko‘rinishini rivojlantirishga asoslanadi. Natijada u muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradigan muammoli vazifalar zanjiri sifatida taqdim etilishi kerak bo‘lgan materialning didaktik tarkibini puxta loyihalashni talab qiladi. Biroq, o‘qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim pedagogik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Buning sababi shundaki, hozirgi kungacha muammoli o‘rganishning ayrim jihatlari yetarlicha o‘rganilmagan.

Bo‘lajak tarbiyachilar yosh bolalarni har tomonlama rivojlantirishi muhimligi sababli, ular uchun integratsion ta’limning o‘rni juda muhimdir. Bo‘lajak tarbiyachilar barcha fanlarga oid bilimlarni qisqa muddatda to‘liq o‘zlashtira olmaydilar. Bunday vaziyatda integratsion ta’limning moslashtirilgan variantidan, ya’ni ularning o‘z sohalariga tegishli qismini o‘rganishdan foydalanish mumkin. Ushbu vazifa ustida amaliy tajriba olib borish g‘oyat muhimdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, muammoli integratsion ta’lim zamonaviy pedagoglarning kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu model bo‘lajak tarbiyachilarning o‘zlashtirish darajasini oshiribgina qolmay, balki ularni mustaqil, ijodkor va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalaydi. Shu bois bu yondashuv darslarda ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azimov A. M. (2021). Oliy maktabda muammoli ta’lim — muammoli ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlari, integratsion metodlar va innovatsion ta’lim mazmuni yoritilgan.
2. Qodirov F. va Fayzullayeva D. (2024). Muammoli o‘qitish orqali o‘quvchilarni rivojlantirish — problem-based learning sharoitida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, jamoaviy ishlashi va analitik ko‘nikmalarini shakllantirish tahlil etilgan.
3. CyberLeninka maqolalari (2023). Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muammoli ta’lim texnologiyalari — pedagogika oliygohlarida muammoli ta’lim orqali ijodiy fikrlash va ko‘nikmalarni rivojlantirish masalalari.
4. Berdiqulova N. E. (2024). Innovatsion ta’lim muhitida muammoli ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish — muammoli vazifalar orqali tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik va mustaqil izlanishning ahamiyati.
5. Pedagogik integratsiya bo‘yicha manbalar — L. P. Blonskiy, L. S. Vygotskiy, V. V. Davydov, S. L. Rubinshteyn, I. Ya. Lerner va boshqa rus psixologiya-pedagoglarining asarlari.
6. Mavlonova R. A. (2009). Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi — fanlararo integratsiya, integratsiya kurslari va o‘quv metodikasi.